



THE PERSONALITY, ACTIVITIES, AND LEGACY OF ASHURALI ZOHIRIY

Shakhnoza Abidinovna Mirzamidinova

Senior Lecturer at the Department of Humanities and Social Sciences, Angren University

Independent researcher at the State Museum of the Memory of the Victims of Repression under the Cabinet of Ministers

Email: msaa.auni@auni.uz

Angren, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Russian Empire, bolshevik government, Muhammad Ali Khan madrasa, Alisher Navoi, Abdurahman Jami, Zahiriddin Muhammad Babur, “Turkish chrestomatia”.

Received: 20.01.26

Accepted: 21.01.26

Published: 22.01.26

Abstract: Whether we like it or not, the events happening in the world today compel us to remember the lessons of a century ago, draw wise conclusions from them, and avoid repeating the mistakes we made. After all, as our President specifically stated in his address to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan, today's global life has become more difficult, contradictory, and dangerous than ever before.

This article examines the life, spiritual, educational and political activities of Ashurali Zohiri, a scholar born in the late 19th century and active in the early 20th century, who left a significant place in the literary scene of Kokand and a prominent member of the Jadid movement in Turkestan.

ASHURALI ZOHIRIYNING SHAXSIYATI, FAOLIYATI VA MEROSI

Shaxnoza Abidinovna Mirzamidinova

Angren universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: msaa.auni@auni.uz

Angren, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Rossiya imperiyasi, bolsheviklar hukumati, Muhammad Alixon madrasasi, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, “Turkiy xrestomatiya”.

Annotatsiya: Bugun dunyoda kechayotgan voqea-hodisalar xohlaymizmi-yo‘qmi, bir asr oldingi saboqlarni eslashga, ulardan oqilona xulosa chiqarib, yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslikka undamoqda. Zero,

Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomada alohida ta'kidlaganidek, bugungi dunyo hayoti har qachongidan ham murakkab, ziddiyatli, xavfli ko'rinish olgan. Ushbu maqolada XIX asr oxirida tug'ilib, XX asr boshlarida ijod etgan, Qo'qon adabiy muhitida sezilarli o'rin qoldirgan olim, Turkisondagi jadidchilik harakatining yorqin a'zosi Ashurali Zohiriyning hayot yo'li, ma'naviy-ma'rifiy va siyosiy faoliyati haqida so'z boradi.

ЛИЧНОСТЬ, ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И НАСЛЕДИЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИЯ

Шахноза Абидиновна Мирзамидинова

Старший преподаватель кафедры гуманитарных и социальных наук

Ангренского университета

Независимый соискатель Государственного музея памяти жертв репрессий при Кабинете Министров

Электронная почта: msaa.auni@auni.uz

Ангрен, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Российская империя, большевистское правительство, медресе Мухаммада Алихана, Алишер Навои, Абдурахмон Джами, Захириддин Мухаммад Бабур, «Хрестоматия Тюркского языка».

Аннотация: События, происходящие сегодня в мире, хотим мы этого или нет, побуждают нас помнить уроки столетней давности, делать из них разумные выводы и не повторять допущенных ошибок. В конце концов, как подчеркнул наш Президент в своем обращении к Олий Мажлису и народу Узбекистана, сегодняшний мир сложнее, противоречивее и опаснее, чем когда-либо прежде.

В данной статье рассматривается жизнь, духовная, образовательная и политическая деятельность Ашурали Зохири, ученого, родившегося в конце XIX века и работавшего в начале XX века, оставившего значительное место в литературной среде Коканда и видного члена движения Джадидов в Туркестане.

Kirish. XX asr boshlaridagi ulkan madaniy ko'tarilish Turkiston zaminidan ko'plab milliy ziyolilar qatlamini shakllantirib berdi. Madaniy ko'tarilish o'z-o'zidan vujudga kelib qolmasdan, balki dastlab Rossiya imperiyasining, so'ngra bolsheviklar hukumatining Turkiston xalqiga nisbatan ko'rsatgan cheksiz milliy zulmi mahalliy ziyolilarning shakllanishiga, o'zlarining maqsad va maslaklari yo'lida qat'iy tarzda faoliyat olib borishga undadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bu paytga kelib Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Domla Ikrom, Hoji Muin, Abdulqodir Shakuriy, Abdulloh Badriy, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Po‘latxo‘ja, Muso Saidjonov, Muxtor Saidjonov, Ota Xo‘jayev, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Eshon Xo‘ja, Hasanxo‘ja qori, Mulla Abdulla, Muhammadjon qori, Muallim Rustambek, aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiy qori, Abdulla Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, G‘ulom Zafariy, Namanganda Zayniddin qori, Dadamirza qori, Diydavoy qori, G‘afur xoji, Abdullajon qori, Qo‘qonda esa Mirshohid Miroqilov, Yunusjon hoji Og‘aliqov, Abdulvahob Ibodiy, Muhammadjon Holiqiy, Obidjon Mahmudov kabi bir qator ziyolilar faol tarzda islohotchilik harakatlarini olib borayotgan edilar.

Qo‘qonda o‘z faoliyatini olib borayotgan Ashurali Zohiriy ham XX asr boshlaridagi Turkiston ziyolilarining eng peshqadamlaridan biri edi.

Ashurali Zohiriy o‘zining qizg‘in ijtimoiy-siyosiy faoliyati, salmoqli ilmiy-ijodiy merosi bilan o‘zbek xalqining istiqloq yo‘lidagi kurashi, yuksak madaniyati tarixida yorqin iz qoldirgan siymolardan biri bo‘lgan, u o‘z davrida jadid ijtimoiy harakatchiligidan yetakchilaridan biri, Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon singari mashhurlikka erishgan.

Ma‘rifatparvar, ziyoli inson Ashurali Zohiriy hayot taqozosi bilan ijtimoiy-ma‘naviy, siyosiy hayotning turli sohalarida ish olib borgan, u ayni paytda pedagog-olim, yozuvchi-tarjimon, lug‘atshunos, jurnalist-noshir sifatida va yana boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatib, ilmiy-ma‘rifiy, pedagogik, adabiy-publitsistik faoliyati bilan o‘zbek xalqi madaniyati tarixida munosib o‘rin egallagan .

Ashurali Zohiriy 1885-yilda Qo‘qon shahri yaqinidagi Oyim qishlog‘ida o‘rtahol o‘zbek dehqoni honadonida tug‘ilgan. Otasi Muhammadzohir o‘rtahol dehqon bo‘lib, halol mehnati bilan oila turmushini tebratgan. Onasi haqida ma‘lumotlar mavjud emas. Akasi Hojiboy 1880-yili tug‘ilgan.

Ashurali Zohiriy dastlab savodini qishloq maktabida chiqargach, Qo‘qon xonligida o‘z zamonasidagi eng katta dabdabali madrasa bo‘lgan Muhammad Alixon madrasasi (Madalixon madrasasi; Madrasai xon) da tahsil olgan. Muhammad Alixon madrasasi afsuski Qo‘qonda saqlanib qolmagan 2 qavatli madrasa bo‘lgan, 1827-yilda o‘zbek hukmdori Muhammad Alixon donatorligida Qo‘qon xonligi poytaxtining Boybo‘ta mahallasida bunyod etilgan. Ushbu madrasa o‘z davrining ilg‘or tarzda tahsil beradigan o‘quv dargohlaridan biri bo‘lib, Ashurali Zohiriy ham ushbu oliygohda tahsil olish davomida arab va fors tillarini, shuningdek fiqh , islom tarixi, adabiyot va boshqa diniy hamda dunyoviy ilmlarni puxta o‘zlashtiradi.

Yana bir jihatni alohida qayd etish lozimki, o‘zbek mumtoz adabiyotiga xususan Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi yuksak darajali adiblarning

hayoti va faoliyatiga qiziqish Ashurali Zohiriyning qalbida aynan Muhammad Alixon madrasasida o'qish asnosida ildiz otdi.

Ashurali Zohiriy Muhammad Alixon madrasasida 1894-1914-yillarda tahsil olgan bo'lib u madrasada tahsil olish bilan birga 1907-yildan boshlab Qo'qon shahridagi rus-tuzem maktabida o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars beradi. Zohiriy ushbu maktabda 1917-yilgacha dars berish bilan birgalikda turk, ozarbayjon, tatar va rus tillarini mukammal o'rganadi.

A. Zohiriy 1910-yildan boshlab gazetalarda o'z asarlari, zamon ruhiga mos maqolalari bilan qatnasha boshlagan. Uning bu maqola va asarlari o'zbek tili masalalari, maktab hayoti va o'quv-tarbiyaviy ishlarga bag'ishlanib, tub mohiyati bilan xalqqa maorif tarqatish ruhida yozilgan.

1910 yil jadid taraqqiyparvarlari safiga kirib, Qo'qondagi jadid muallimlari bilan hamkorlikda "Taraqqiyparvarlar jamiyati" nomli uyushma tuzadilar. Ushbu uyushma nizomida asosan xalqning maorif tizimini qo'llab-quvvatlash, yangi usul maktablarining faoliyatini yanada kengaytirish, o'qituvchilarning ilmiy va pedagogik saviyasini oshirish hamda ushbu yo'lda butun qo'qonlik taraqqiyparvarlarning kuchlarini bir markazga birlashtirish ko'zda tutilgan edi.

Dastlab u "Turkiston viloyatining gazetasi"da kichik hajmdagi maqolalar bilan ishtirok etib bordi. Keyinchalik, ya'ni 1914-yilda Obidjon Mahmudov muharrirligidagi "Sadoyi Farg'ona" gazetasi tashkil etilgach, uning faoliyatidagi asosiy mualliflardan biri bo'lib xizmat qildi.

"Sadoyi Farg'ona" gazetasiga Ashurali Zohiriyning mehnati ko'p singgan. O'sha paytlarda Qo'qondagi taniqli ma'rifatparvar bo'lgan Ashurali Zohiriy ayni paytda rus-tuzem maktabida muallimlik qilar, jamoatchilikka mumtoz adabiyot va til ilmining puxta bilimdoni sifatida tanilgan edi. "Sadoyi Farg'ona" gazetasida keladigan materiallarni tahrirdan chiqarish butkul Ashurali Zohiriyning zimmasida bo'lgan.

Ashurali Zohiriy 1912-yilda yosh tarixchi olim Zakii Validiy haqida eshitib, o'zi bilan birga bir guruh qo'qonlik taraqqiyparvarlarni olib Qozonga boradi. Zaki Validiy tomonidan Turkiston tarixiga doir tadqiqotlari bilan yaqindan tanishadi va maktablarda o'quvchilar uchun qulay ta'lim berish usullarini o'rganadi.

Ashurali Zohiriy 1912-yilda Qo'qonda maktab o'quvchilari uchun "Turkiy xrestomatiya"ning yuzaga kelishida faol ishtirok etib, oradan to'rt yil o'tib ya'ni 1916-yilda "Turkistondagi maktabi ibtidoiyaning 4-sinflari uchun" mo'ljallangan "Imlo" nomli darslikni yozib, Qozondagi "Umid" bosmaxonasida nashr ettirdi.

1916-1917 yillarda Ashurali Zohiriy ulkan ijodiy jasoratga bel bog'laydi. U Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatiga murojaat qilgan holda, buyuk mutafakkirning "Vaqfiya" va "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlari ustida ilmiy tadqiqotlar olib boradi va o'z qo'li bilan nastaliq xatida ko'chirib, nashrga tayyorlab, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlarini 1917-yilning boshlarida Qo'qondagi Vayner matbaasida chop ettiradi.

Ashurali Zohiriy 1917-yilgi oktyabr o'zgarishidan keyin yuz bergan Turkiston hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealarda faol ishtirok etgan, uning siyosiy qarashlari maslak jihatidan Behbudiy, Munavvar qori Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Obidjon Mahmudov qarashlari bilan o'zaro mos bo'lgan.

Ashurali Zohiriy 1917-yil 1-iyunda Qo'qon shahrida "Yurt" jurnaliga asos solib, uning bevosita muharriri o'zi edi. Bundan tashqari jurnalning nashr ishlarini Hoji Mavlonberdi Ashurboyev olib borgan. "Yurt" jurnalining tahririyati joylashgan manzil shaharning Xo'jand ko'chasida edi. "Yurt" jurnalining ikkinchi soni 1917-yil 15-iyulda, uchinchi soni esa 18-avgustda nashr etilgan. Jurnal "Siyosiy, ijtimoiy, tarixiy va adabiy haftalik majmua" hisoblanib, jami uchta soni chop etilgan va shundan so'ng bolsheviklarning tazyiqi ostida yopib tashlangan. Garchi ushbu jurnalning bor yo'g'i uchta soni chop etilgan bo'lsa-da, biroq undagi maqolalarning ruhi kishini beixtiyor Turkistonning azim va eski dardi bilan yashashga undaydi. Jurnalda Ashurali Zohiriydan tashqari, Abdullabek, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Ahmad Sardor, Mirmuhsin Shermuhammedov, "Shokir Muxtoriyalar ijod etib, eng muhim va dolzarb masalalar va ularning yechimini jamoatchilikka taqdim etgan.

Ashurali Zohiriy eng avvalo maorif masalasiga katta e'tibor qaratib, shu yilning o'zida noshir sifatida ham o'zini ko'rsatib "G'ayrat" nomli xususiy nashriyot va kutubxonaga asos soldi va aynan kutubxona va nashriyot ochganidan so'ng Farg'ona vodiysi taraqqiyparvarlarining haqiqiy yetakchisiga aylandi. "G'ayrat" kutubxonasi o'z davri uchun ko'plab kitob va gazeta-jurnallar bilan to'ldirilgan bo'lgan. Keyinchalik aynan ana shu "G'ayrat" nashriyoti va kutubxonasining yordami bilan Turkiston Muxtoriyatining rasmiy nashri afkori hisoblangan "El bayrog'i" gazetasi chop etildi. Ashurali Zohiriy ushbu gazetada Turkiston Muxtoriyatining ahamiyatini, ushbu mustaqil davlatchilikni mustahkamlash uchun fuqarolar tomonidan qanday ishlar amalga oshirilishi lozimligini qayd etgan holda, butun turkistonliklarni Muxtoriyat atrofida birlashishga chaqirdi.

Jumladan, uslubiy jihatdan Ashurali Zohiriyning qalamiga mansub bo'lgan "Anglaydirg'on vaqt!" maqolasi ana shunday maqolalardan hisoblanadi. Unda muallif shunday yozadi: "Hurriyat bo'ldi, Muxtoriyat e'lon etdik! Suyundik, quvondik! Ammo natijaga qarasaq, maqsad bilan bizning oramiz hanuz uzoq. Hanuz bir maqsadg'a yetkanimiz yo'q. Hatto bizning ko'z-yoshimiz, tepkan yuragimiz, tiqilg'on nafasimiz hanuz to'xtag'oni yo'q. Ezilgan jigarlar, bag'irlar, qaltirag'on qo'llar, oyoqlar, qotg'on bosh, uchgan xush hali o'z o'rnig'a kelib qaror olg'on yo'q. Vatanimiz, ona yurtimiz, shahrimiz, uyimiz bizlarg'a farog'at va istirohat o'rni bo'lib ko'rinmaydur. Biz bunda erkin yura olmaymiz, uxlay olmaymiz. Ko'krak kerib yurishg'a bizda darmon yo'q, ixtiyor yo'q. Rusiya davlati pora-pora bo'lib sindi, bo'lindi. Har firqa o'z yo'lini topib ketdi, ishini yo'lg'a solib oldi. Nega ulardan Turkiston keyin qoldi? Mana shuni

anglaydirg'on, vaqtlar, soatlar, daqiqalar keldi. Qayrilib ahvollarimizg'a nazar soladiring'on zamonlar keldi. Muni har bir turk bolasi, musulmon bolasi o'ylab ko'rsa, sababini tekshirsa zarar bo'lmas edi".

Muallif ushbu yurakdan otilib chiqqan chaqiriq bilan barcha turkistonliklarni jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishga chaqirdi.

Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgach Ashurali Zohiriy Qo'qondagi Dorulmualliminda (Muallimlar tayyorlash o'quv dargohi), neft texnikumida hamda shahar atrofidagi maktablarda ona tili va adabiyot o'qituvchisi shuningdek, "Xalq" gazetasida jurnalist sifatida faoliyat olib bordi.

Ashurali Zohiriy tadbirkor inson sifatida 1912-1917-yillarda Oyim qishlo'gidagi mayda kredit jamiyatida rais, 1918-1919-yillarda Qo'qon kooperatsiya ittifoqida rahbar sifatida mehnat faoliyatini olib bordi. Shu bilan birga Ashurali Zohiriy 1922-1926-yillarda dastlab "Farg'ona", undan so'ng "Yangi Farg'ona" gazetalarida texnik redaktor va muharrir sifatida ishladi.

Ashurali Zohiriy XX asr boshlaridagi Turkiston ziyolilari ichida o'zining ijtimoiy-siyosiy jihatdan yuz berayotgan voqealarni teran tahlil qilishligi hamda vaziyatga xolisona va to'g'ri bahoni bera olishligi bilan alohida ajralib turgan. Bir so'z bilan aytganda, o'z davri bilimdonlari orasida o'ta bilimdoni, bir so'zligi va o'ta botirligi bilan ajralib turadigani Ashurali Zohiriy edi.

Ashurali Zohiriy dastlab 1930-yilning fevral oyida qamoqqa olinib, aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida ayblangan. Zohiriyga tegishli tergov xujjatlariga ko'ra u "Temur" nomli sovetlarga qarshi tashkilotda faoliyat ko'rsatganlikda ayblangan. Biroq, Ashurali Zohiriy bu ayblovnini qat'iyan rad etgan: "Temur" nomli aksilinqilobiy ruhdagi tashkilot bo'xtondan boshqa narsa emas edi. Biroq, ushbu tashkilotning asoschilari sifatida keltirilgan shaxslar avval Qo'qon shahridagi musulmon seminariyasida, keyinchalik esa shahardagi muallimlar bilim yurtining fundamentini tashkil etgan ziyolilar hisoblanadi. Ushbu ziyolilar o'zbek xalqining maorifini ko'tarish, zamon ilmlariga xos bo'lgan milliy kadrlarni tayyorlashni o'z oldilariga maqsad qilib olgan edilar".

Shu bilan birga Ashurali Zohiriyga Farg'ona pedagogika texnikumida "Ko'rkalamush" degan maxfiy gazetani tashkil etishda va ushbu gazeta orqali aksilinqilobiy va millatchilik ruhidagi maqolalarni chop ettirib omma ichida tarqatishda ayblangan. Biroq, Zohiriy bu ayblovlarning barchasini rad etgan.

Ashurali Zohiriy tomonidan keltirilgan mantiqiy dalillar va ko'rsatmalarning birortasi ham inobatga olinmadi va natijada u dastlab o'lim jazosiga hukm qilinib, keyinchalik ya'ni 1931-yilning 25-aprelida ushbu jazo 10 yillik konslager bilan almashtirildi.

Ashurali Zohiriy 1936-yilda jazoni muddatidan oldin o'tab qaytgach, 1937-yilning 5-sentyabr kuni O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari Zagvozdinning qarori bilan qaytadan qamoqqa olinadi. Bu paytda u Qo'qon shahar maorif boshqarmasining o'qituvchisi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lgan.

Ashurali Zohiriy qamoqqa olingach unga quyidagi beshta banddan iborat ayblov e'lon qilingan:

- 1) Ashurali Zohiriy O'zbekistondagi "Botir gapchilar" nomli aksilinqilobiy guruhning faol a'zosi sifatida, sovet hokimiyatining dastlabki kunlaridanoq sovetlarga qarshi kurash olib borgan;
- 2) U Qo'qon Muxtoriyati davrida aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi "El bayrog'i" gazetasida muharrirlik qilish bilan birga, turkparastlikni aholi ichida keng miqyosda targ'ib qilish bilan shug'ullangan;
- 3) Ashurali Zohiriy 1918-yildan boshlab Turkiston jadidlarning "Milliy ittihad" millatchilik ruhidagi tashkilotiga a'zo bo'lgan. 1930-yildan boshlab esa mazkur tashkilotning "Botir gapchilar" nomli sho'basining faol a'zosi bo'lgan.
- 4) U 1936-yilda qamoq muddatini o'tab qaytgach yana aksilinqilobchi va millatchi unsurlar bo'lmish Cho'lpon, G'ozir Yunus kabilar bilan yaqindan hamkorlik qilgan;
- 5) Bundan tashqari Ashurali Zohiriy Sovet hukumatiga nisbatan millatchilik va inqilobiy g'oyaga qarshi tizimli tarzda kurash olib borgan hamda sovet partiya tashkilotlarini uzluksiz tarzda omma orasida haqorat qilish bilan shug'ullangan.

Ashurali Zohiriy 1937-yil 4-dekabrda Ichki ishlar xalq komissarligi qoshidagi "Uchlik" sudi tomonidan O'zSSR Jinoyat kodeksining 60, 67-moddalari bilan aybdor deb topilib, oliy jazoga hukm qilindi. Hukm shu yilning 28-dekabrida ijro etildi.

Ashurali Zohiriy 1958-yil 15-sentyabrda O'zSSR Oliy sudi tomonidan oqlangan.

Natijalar. Ashurali Zohiriy ko'plab turkistonlik jadid taraqqiyparvarlari singari inqilobdan keyin hokimiyatga kelgan bolsheviklarning yovuz g'oya va siyosiy harakatlariga qarshi zimdan kurash olib bordi. Zohiriy xorijiy tadqiqotchi Boymirza Hayit tomonidan tasniflangan jadidlarning ikkinchi turiga mansub edi, ya'ni sovet hokimiyati idoralariga ishga kirgan holda Turkistonning hur va ozod bo'lish yo'lida kurash olib borganlar safida edi.

Ashurali Zohiriy keyinchalik sovet tashkilotlarida ishlaganida ham doimo milliy mustaqillik g'oyasi bilan yashadi, Turkistonni yana qaytadan ozod ko'rish ishqida yonayotgan milliy istiqbolchilik kurashi vakillari bilan yaqindan hamkorlik qildi. Ashurali Zohiriy Munavvarqori Abdurashidxonov, Miyon Buzruk Solihovlar bilan birga Farg'ona qo'rboshilarining maxsus tashkil etilgan qurultoyida ham ishtirok etgan edi .

Shuningdek, Ashurali Zohiriy pedagog sifatida ham millatni qayta tarbiyalashni, xalq bolalarini sifatli ta'lim bilan ta'minlash borasida ma'lum bir ishlarni amalga oshirdi. Shu manoda Qo'qondagi usuli-jadid maktablarini yanada rivojlantirish ishlarida Zohiriy ham faol tarzda ishtirok etib bordi.

Ashurali Zohiriy ba'zi maslakdosh jadid ziyolilari kabi eski maktabni to'laqonli shaklda inkor etmasdan, balki uning ham ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatli jihatlarini o'zining pedagogik

faoliyatiga jalb etgan va amalda mohirona tarzda qo'llagan. Qolaversa, Ashurali Zohiriy aynan yangi usuldagi ta'lim jarayonida eski maktab va madrasalarda o'qitilgan Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Xo'ja Hofiz, Sheroziy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho shaxsiyatlarning asarlarini o'qitish orqali o'z o'quvchilarida tarixiy merosning ma'naviy urug'larini ekishni ham ko'zlagan.

Shuningdek, teatr san'atining qudratli kuchini to'g'ri baholagan Zohiriy, Qo'qon shahrida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasini sahnalashtirish jarayonlarida faol ishtirok etib, hatto aktyor sifatida ham rol ijro qildi.

Muhokama. Ashurali Zohiriy tilning ma'naviy kuchini yuksaltirishda lug'atning ham o'rni benihoya katta ahamiyatga ega ekanligini juda yaxshi tushunib, bu yo'lda katta ishlarni amalga oshira oldi. Uning tilshunoslik merosida "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at"i (1927-1928 y.) salmoqli o'rin egallaydi. 34 ming so'zdan iborat ikki jildli ushbu lug'at milliy tilimizning leksik me'yorlarini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ashurali Zohiriyning publitsistik merosi ham ulkan va serqirradir. U "Sadoyi Farg'ona", "Sadoyi Turkiston", "El bayrog'i", "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston", "Qizil O'zbekiston", "Farg'ona", "Yangi Farg'ona", "Zarafshon", "Sharq haqiqati" gazetalari, "Al-Isloh", "Yurt", "Ishchilar dunyosi", "Inqilob", "Inqilob shulasi", "Yer yuzi", "Bilim uchquni", "Maorif va o'qitg'uvchi", "Mashrab", "Mushtum" va boshqa shular kabi davriy matbuot nashrlarida o'zining ko'plab maqolalari bilan ishtirok etdi.

A.Zohiriy tilshunos olim sifatida ona tilining qadr-qimmatini o'z o'rniga qo'yish to'g'risida dastlab milliy matbuot, so'ngra sovet tipidagi davriy matbuot sahifalarida o'nlab maqolalari bilan chiqishlar qildi. Zohiriy Turkiston xalqini xorijiy tillarni o'rganishga da'vat etish bilan birga, bundan oldin eng avvalo o'z ona tilini o'rganish zarurligini, bu omil xorijiy tillarni o'rganish ishini ham ancha yengillatishini urg'uladi.

Ashurali Zohiriy butun faoliyati mobaynida – mumtoz adabiyot va bevosita e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan diniy adabiyotlardan Turkiston xalqining uzilib qolmasligi uchun arab alifbosi asosidagi eski o'zbek alifbosini himoya qilib keldi. Biroq, Sovet hukumati tomonidan yangi imlo ya'ni arab alifbosi o'rniga lotin alifbosini amaliyotga joriy etish siyosati amalga oshirilishi oldindan belgilab qo'yilganligi oydinlashgach, bu ishni ro'yobga chiqarishda Turkiston xalqi ichidan yetishib chiqqan asl mutaxassislarga tayanishni, hamda bunda mahalliy millatning ruhiyati va qadriyatlari hisobga olinishi lozimligini talab qildi.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, Ashurali Zohiriy Turkiston xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-maishiy hayotining sinchkov kuzatuvchisi sifatida millat ravnaqiga befarq bo'lmadi.

U milliy uygʻonish davrining koʻzga koʻringan maʼrifatparvar ziyolisi va istiqlol kurashchisidir. U oʻzidagi bor isteʼdod va iqtidorini milliy mustaqillik yoʻliga baxshida etdi. Xalqni maʼrifat yoʻli bilan tarbiyalashda muhim boʻlgan milliy maktab-maorifni tashkil qilishda, matbaachilik, jurnalistika va yana boshqa sohalarda fidokorona xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. T.Togʻayev. Ashurali Zohiriy – jadid kurashchisi // «Ұлы дала» iv-ші гуманитарлық ғылымдар форумының материалдары. НУР-СУЛТАН.: «Ғылым» баспасы. 2019. – Б. 413.
2. Tojiboyev R. Ashurali Zohiriy – navoiyshunos // “Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnali. 1988-yil № 3. – B. 63.
3. Alijonov M. Oʻtgan asr jurnalistikasi – uchinchi sonidayoq taqiqlangan “Yurt” jurnali sahifalarida nimalar yoritilgan edi?. <https://oyina.uz/uz/article/1943>.
4. Irzayev B. Qoʻqon tarixidan lavhalar. – T.: “Akademnashr” nashriyoti. – B. 10.
5. Rajabov Q. Jadidlar – istiqlolchilik harakatining gʻoyaviy rahnamolari. – T.: “Eldinur” nashriyoti. 1998. – B. 15
6. Zohiriy A. Anglaydirgʻon vaqt // “El bayrogʻi” gazetasi. 1917-yil 26-yanvar.
7. <https://oyina.uz/uz/article/1159>
8. <https://hidoya.uz/uz/news/939>